

МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNING IJTIMOYIY KOMPTENTLIGINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI SHAKLLANTIRISH

Nabiyeva Negin Dilshod qizi

Navoiy davlat pedagogika instituti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta'lim)

2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu magistrlik dissertatsiya maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy kompetentlikni shakllantirish jarayonining asosiy masalalari, adabiyotlar tahlili, nazariy va amaliy ahamiyati, maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiy rivojlanishining nazariy-metodologik asoslari, Davlat o'quv dasturi, muloqot va o'yin asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy kompetentlikni shakllantirish bo'yicha ma'lumotlar aks etgan.

Kalit so'zlar: Kompetensiya, kompetentlik, o'yin, qobiliyat, psixologiya.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОВЫШЕНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ДОШКОЛЬНИКОВ ФОРМИРОВАНИЕ

Набиева Нигина Дилшод кизи.

Навоийский государственный педагогический институт

Аннотация. В данной магистерской работе рассматриваются основные вопросы процесса формирования социальной компетентности у дошкольников, анализ литературы, теоретическое и практическое значение, теоретико-методические основы социального развития дошкольников, формирование социальной компетентности у дошкольников на основе Государственной учебной программы. , общение и игра.отображается информация о.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy rivojlanishi bolaning jamiyat qadriyatlarini, urf-odatlarini va madaniyatini, shuningdek, jamiyatda qulay hayot kechirishiga yordam beradigan shaxsning ijtimoiy xususiyatlarini o'zlashtiradi. Ijtimoiy moslashuv jarayonida bolalar muayyan qoidalar asosida yashashni o'rganadilar va xatti-harakatlar normalarini hisobga olishadi.

Aloqa jarayonida bola ijtimoiy muhitga ega bo'lib, uning yaqin atrofi: ota-onalar, o'qituvchilari va tengdoshlari tomonidan ta'minlanadi. Ijtimoiy kompetentligi bolaning faol ravishda muloqot qilish va axborot almashinuvi tufayli amalga oshiriladi. Ijtimoiy mas'uliyatsiz bo'lgan bolalar ko'pincha boshqalarning tajribalarini rad etadi. Kattalar va tengdoshlar bilan muloqot qilmaydi. Bu madaniy ko'nikmalarni egallamasligi va zarur

ijtimoiy fazilatlarini yo'qotishi tufayli kelajakda antisional harakatlarga olib kelishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning ijtimoiy kompetentligining rivojlanishi bu qadriyatlarni va an'analarni, madaniyat va jamiyatdagi xulq-atvor me'yorlarini maqsadli shakllantirishdir. Bu bolaning axloqiy me'yorlarni o'zlashtirishi, tabiatga va atrofdagi barcha odamlarga muhabbatni shakllantirishdir.

Bola tarbiyasi uchun davlatni boshqarishdan ko'ra ham teranroq mushohada, undan ham chuqurroq donishmandlik kerak. (U.Chenning) Maktabgacha yoshdagi ijtimoiy-psixologik kompetensiya va axloqiy tarbiya, bola axloqiy baholash va mulohazalarni ishlab chiqishi bilan belgilanadi, u axloqiy me'yor nima ekanligini tushunishga kirishadi va unga nisbatan munosabatini rivojlantiradi. Bolalarning ijtimoiy va axloqiy tarbiyasi ularning hayoti davomida amalga oshiriladi va u rivojlanib, o'sib boradigan muhit bola axloqini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy rivojlanishini umumiy "ijtimoiylashuv" tushunchasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ijtimoiylashuv - bu bolaning jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy-axloqiy me'yorlar va xulq-atvor qoidalarini o'zlashtirish jarayoni. Ijtimoiylashuv - bu butun hayot davomida davom etadigan doimiy jarayon. Maktabgacha yoshdagi bolalikda bu birinchi navbatda ijtimoiy hayot normalarini o'zlashtirishdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsiyalar his-tuyg'ular irodaviy hislatlar bolalarni axloqiy-manaviy tarbiyalash ularning ijtimoiy-xissiy rivojlanishini maktabgacha yoshdan boshlash zarur. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarida olib borilayotgan psixologik xizmatni takomillashtirish masalasi alohida e'tiborni talab qiladigan zarur masalalardan hisoblanadi. Psixologik xizmatning to'laqonli darajada yo'lga qo'yilishi ta'lim muassasasi faoliyati sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Maktabgacha yoshdagi bo'lgan bolaning umumiy asosiy kompetensiyalari quyidagilar: - **Kommunikativ kompetensiya;** -**O'yin kompetensiyasi;** -**Ijtimoiy kompetensiya;** -**Bilish kompetensiyasi.** Kompetensiya –muayyan fan bo'yicha o'quvchi egallagan nazariy bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni echishda foydalanib, amaliyotda qo'llay olish.

Bolalar bog'chasida olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayoni bolalarning qobiliyat va layoqatlarini har tomonlama rivojlantirishga, ular shaxsini shakllantirishga qaratilgan. Pedagogika jarayonining mahsuldorligi pedagogning o'z tarbiyalanuvchilarini yaxshi bilishiga, ta'lim va tarbiyaning xilma-xil metodlarini qo'llashiga bog'liq. Psixologiya fan sifatida tarbiyachiga tayyor retseptlarni bera olmaydi. Bunday ko'nikmalar bolalar bilan bevosita muloqot jarayonida, bola xulq-atvori motivlarini, shaxsiy xususiyatlarini tahlil qilish jarayonida egallanadi. Bu haqda K.D.Ushinskiy quyidagicha yozgan edi: «Biz unday yoki bunday qiling deb tushuncha bermaymiz. Biz ularga Siz boshqarmoqchi bo'lgan psixik hodisalarning

qonuniyatlarini o'rganing va ularga mos ravishda harakat qiling», – deymiz. Taraqqiyotdan chetlashish yoki buzilish sodir bo'lgan holatlar chegara holatlari sifatida, psixik taraqqiyot kamchiligi sifatida, shaxs aksentuatsiyasining turli ko'rinishi sifatida tasniflanishi mumkin. Ularni aniqlash uchun bolalar psixologiyasi, klinik potopsixologiya va psixiatriya kabi sohalardagi bilimlar talab qilinadi. Bundan tashqari tarbiyachiga akseleratsiya (tez yetilish), pedagogik qarovsizlik kabi muammolarni hal qilishga to'g'ri keladi. Tarbiyachi ta'lim va tarbiyadagi qiyinchiliklar nima uchun va qanday qilib paydo bo'lishini tushunishi uchun, u avvalo bola psixik taraqqiyotining asosiy qonuniyatlarini bilishi va turli psixik holatlarni psixologik diagnostika metodlarini egallashi zarur. Tarbiyachining psixodiagnostik tadqiqot yoki doimiy kuzatish jarayonida olingan natijalarni bolalar bilan ishlashda qanchalik to'g'ri foydalana olishi ham zarur hisoblanadi. Tajribaga asoslangan psixologik diagnostika fan sifatida XIX asr oxirida vujudga keldi. Xuddi shu davrda psixologiyada o'lchash g'oyasi keng tarqaldi. Psixodiagnostikaning mustaqil fan sohasiga aylanishi olimlarning insonlar psixikasidagi individual farqlarga qiziqishining ortishi bilan bog'langan. 410 Psixodiagnostika psixologik diagnoz qo'yish haqidagi fandir. Bunda diagnoz ko'rsatkich va tavsifnomalarni birgalikda tahlil qilish asosida sinaluvchining holati va xususiyatlari haqidagi xulosalaridan iboratdir. Psixologik diagnoz (diagnosis grekcha aniqlash, bilish degan ma'noni anglatadi) shaxs individual-psixologik xususiyatlarining hozirgi holatiga baho berish, rivojlanishini oldindan aytib berish (prognoz qilish) va psixodiagnostik tekshiruv vazifalaridan kelib chiqib, tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan psixolog faoliyatining so'nggi natijasidir. Psixodiagnostik tadqiqotlar amaliyotida psixologik diagnoz qo'yishning 3 bosqichi farqlanadi: 1) simptomatik diagnozda dasturi mavjud har qanday EXM bajarishi mumkin bo'lgan tadqiqotdan olingan natijalar qayta ishlanadi; 2) etnologik diagnozda (kelib chiqish sabablari) biror xususiyatning mavjudligini emas, balki uning vujudga kelish sabablari ham hisobga olinadi; 3) tipologik diagnozda sinaluvchi shaxs tuzilishidan olingan natijalarning ahamiyati va o'рни aniqlanadi. Bolalarni psixodiagnostik tadqiq qilish yosh xususiyatlariga, u yoki bu yosh davri uchun yetakchi faoliyat turining ta'siriga, individual tipologik tavsifnomalarning taraqqiyot darajasiga bog'liq ravishda ba'zi xususiyatlarga ega. Bola taraqqiyotining har bir yosh davri bolalar bilan ishlashning usullari va vazifalarini talab qiladi. Kichik yoshdagi bolalarni psixodiagnostik tekshiruv yosh va pedagogik psixologiyaning sohasi hisoblanadi. Olingan natijalar yordamchi xarakterga ega bo'lib, pedagog tomonidan bola psixik taraqqiyoti xususiyatlarini aniqlashda qo'llaniladi. Bunda ta'lim va tarbiya dasturi, turli hayotiy sharoitlarda: faoliyatda, muloqotda va boshqalarda (shaxs xulq-atvori xarakteristikalarini tuzishda) hisobga olinadi. Eksperimental tadqiqotdan olingan natijalar oilada, bog'chada, maktab va boshqa jamoat joylarida individual va guruhiy tarbiyaviy-pedagogik tadbirlar sxemasini tuzishda qo'llanishi mumkin. Tarbiyachi o'z

ishida doimo bolalar psixofizik taraqqiyoti masalalari bilan to'qnashadi. Uni vaqtincha- 411 lik natijalargina emas, (masalan, yarim yillikning oxiriga kelib bolalarning egallagan ko'nikma, malakalari kabi), balki u yoki bu jismoniy va ruhiy sifatlar rivojlanishining istiqbollari aytib beradigan natijalar qiziqtiradi. Bolalar bog'chalarida psixodiagnostik tadqiqotlar quyidagi vazifalarni hal qiladi: 1. Diagnostika uchun zarur ma'lumotlarni olish. Bunda bolaning psixik holati va shaxsiy xususiyatlaridagi ba'zi belgilarining ko'rinishini o'rganish maqsadida tadqiqot olib boriladi. Tadqiqotdan olingan ma'lumotlar yordamchi xarakterga ega bo'lib, bola xulq-atvorining haqiqiy kuzatilgan xususiyatlari, uning psixik funksiyalari, taraqqiyot darajasi bilan taqqoslashda foydalaniladi.

Xulosa. Maktabgacha yoshdagi bolalarning pedagogik-psixologik kompetentligini oshirish uchun avvalo tarbiyachi pedagogning kompetentligi bo'lishi kerak. Tarbiyalanayotgan yosh avlodning barkamol, vatanparvar, xar tomonlama yetuk shaxs bo'lishi uchun yoshligidan ta'limga qiziqtirish, axborot-texnologiyalarini o'rgatish, avvalo, pedagogning zimmasida turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 48 b.
2. Sh.M. Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: "O'zbekiston". – 2017.– 102b.
3. Sh.M. Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.
4. Sh. M. Mirziyoyev 7 fevral 2017 yil kuni "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947 sonli farmonni